



CANADA



CANADA

YOSHLAR ONGIGA IJTIMOIY TARMOQLARNING TA'SIRI

*Guliston davlat universiteti
Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya: Amaliy psixologiya
yo'nalishi 4-bosqich 3-20-guruh
talabasi Akramova Xamroxon Ilhomovna*

Annotatsiya: *Maqolada internetning shaxslarga ta'sir etishi, aynan ta'sir etish jarayonidagi shaxs o'zligini anglash jarayonida paydo bo'luvchi psixologik xususiyatlari, insoniyatning ajralmas bir qismiga aylanib borayotgan internetning jamiyat ongiga salbiy va ijobiy ta'siri, oqibatlari va uning ta'siri nimaga bog'liqligi, kiber jinoyatlar va virtual do'stlar haqida ma'lumotlar, internetning ijobiy va salbiy natijalarining solishtirmalari haqida yozilgan.*

Kalit so'zlar: *Virtual muhit, internet, ijobiy, salbiy oqibatlari, virtual do'stlar, kiberjinoyatchilar, ijtimoiy tarmoqlar.*

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА СОЗНАНИЕ МОЛОДЕЖЕ

В статье рассмотрено влияние Интернета на личность, психологические особенности, возникающие в процессе осознания личности личности в процессе воздействия, каковы отрицательные и положительные эффекты Интернета, который становится его неотъемлемой частью. человечества, о сознании общества, киберпреступлениях и виртуальной информации о друзьях, написаны сравнения положительного и отрицательного воздействия Интернета.

Ключевые слова: *Интернет, положительные, отрицательные последствия, виртуальные друзья, киберпреступники, социальные сети*

THE INFLUENCE OF SOCIAL NETWORKS ON THE MINDS OF YOUNG PEOPLE

The article examines the influence of the Internet on the individual, the psychological characteristics that arise in the process of realizing the personality of the individual in the process of influence, what are the negative and positive effects of the Internet, which becomes its integral part. humanity, about the consciousness of society, cybercrimes and virtual information about friends, comparisons of the positive and negative effects of the Internet are written.

Keywords: *Virtual environment, internet, positive, negative consequences, virtual friends, cybercriminals, social networks.*

KIRISH

Virtual muhit – bu hodisa yoki hodisalar jarayonlarni taqlid qiluvchi real dunyo bo‘lagining kompyuter modeli hisoblanadi. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot muhitini yaratish va rivojlantirish g‘oyasi muhim va dolzarbdir [1]. “Axborot muhiti” atamasini tushunish nafaqat ma’lumotning odatiy manbalarini, balki virtual komponentni ham o‘z ichiga oladi [2]. Bugungi kunda virtual muhitda, juda ham ko‘plab imkoniyatlar mavjud bo‘lib, ko‘plab ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, tibbiy, hissiy nominal va boshqa jarayonlar, kommunikatsiyalar, uning fazoviy va vaqtinchalik xususiyatlarining o‘zgarishi, bu albatta faoliyatni kengaytirish, ularning tabiatini o‘zgartirish virtual muhitda nihoyatda oson kechadi. Bu sohalarning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Ammo bu faoliyatning ijobiy tomoni bo‘lsada uning salbiy tomoni ham mavjud: Masalan: Virtual makonda hayot kechirish siz bilan biz o‘ylagandan ham ko‘ra xavfliroqdir. Masala shu qadar dolzarb va murakkabki, uni so‘zsiz muammo darajasiga ko‘tarsa bo‘ladi. Nima uchun? Chunki avvalo, bizda bor bo‘lgan faktlarga yuzlansak. Bugungi dunyoda har bir xodim shaxs kuniga o‘rtacha hisobda 5-6 soat vaqtini kompyuter yoki virtual muhitda o‘tkazadi. Telefon so‘zlashuvlari, televizor, internetva kompyuter o‘yinlarini qo‘sib hisoblaganda, bu raqam ikki baravarga ortadi.[3]

Jahon matbuot ma’lumotlariga ko‘ra, internet kommunikatsiya texnologiyalari tarixida misli ko‘rilmagan o‘sish ro‘y berdi. Agar 1990 yilda 1,5 million foydalanuvchi internet tizimiga ulangan bo‘lsa, 1996 yilda - dunyoning 160 mamlakatida 60 million, keyin 2000 yilda - ularning soni 1 mlrd. Qayd etilishicha, internet foydalanuvchilari soni har yuz kunda ikki baravar ko‘paymoqda. Taqqoslash uchun, AQSHga 50 million radio darajasiga erishish uchun 38 yil, 59 million televizor darajasiga erishish uchun 13 yil va 60 million internet foydalanuvchilari darajasiga erishish uchun atigi to‘rt yil kerak bo‘ldi. [4] Mutahasislarning ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatimizda Internet tizimidan foydalanuvchilar soni 12,1 million ga yaqin, boshqacha aytganda, respublikamiz aholisining uchdan bir qismi aynan Internet tarmog‘idan muntazam foydalanib kelmoqda. Bu, albatta, mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotganidan, fuqarolarimizning axborot olish, saqlash, tarqatish kabi konstitutsion huquqlarini amalga oshirishda sifatli aloqa tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari mavjudligidan dalolat beradi. [5]

Demak, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish uchun kunning teng yarmini sarflar ekanmiz. Yoshlar orasida esa mobil telefonlardan keyingi o‘rinda internet eng ommaviy aloqa vositasi ekanini isbotlashning hojati ham bo‘lmasa kerak. Sotsiologik tadqiqotlarga ko‘ra, yer yuzi aholisining 22 foizi internetdan har kuni foydalanadi (2019). Yana bir qiziq ma’lumot: hozir global tarmoqda eng ko‘p ko‘riluvchi yuzta veb-saytning yigirmasasi ijtimoiy tarmoqlar turkumiga kiradi, yana oltmishtasi u yoki bu jihatdan ijtimoiy mazmundagi saytlardir. Uning fonida internet va ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardan

foydalananuvchilarining sonigina emas, ushbu tarmoqlarning insonlarga ko'rsatayotgan ta'siri ham sezilarli ravishda ortib borayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda [6].

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Zamonaviy texnologiya va internetning ijobiy tomonlari juda ham ko'p va u insonlarning internet va texnologiyadan qanday yo'lida foydalanishiga bog'liq. Hozirgi zamonaviy dunyoda har kuni kompyuterdan foydalanadiganlar soni juda ko'p va ularning aksariyati o'z hayotlarini butunjahon tarmog'i bo'l mish internetsiz tasavvur qila olmaydilar, aksincha, uni dunyodagi eng katta yutuq deb hisoblaydilar. Bu bir tomonidan to'g'ri, chunki insonlar endi kutubxonalarga borishi, u yerda bo'lmasligi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni qidirishi yoki kimdir undan foydalanishini kutishi shart emas va ,ayniqsa, hozirgi kunda hech kim bir narsani soatlab kutishni xohlamaydi. Ammo, bugungi kunda texnologiya va internet shunchalik rivojlanib bormoqdaki, ular orqali har bir foydalananuvchi o'zi xohlagan hamma narsani topa olishi mumkin va unda ko'p vaqt va kuch sarflanmaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari zamonaviy jamiyatlarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishida muhim va balki hal qiluvchi rol o'ynaydi. Axborot texnologiyalari har qanday zamonaviy jamiyat hayotining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatadigan strategik muhim sanoat hisoblanadi. U alohida shaxslar va umuman jamiyatlarning iqtisodiy o'sishi va ijtimoiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni ham yaratadi. Ta'lim jarayonidan kelib chiqqan holda aytadigan bo'lsak, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, albatta, o'qituvchi uchun ham o'quvchi uchun ham mavzuni tushuntirish va tushunishda juda samarali va qulay. Masalan, dars jarayonini oddiy tushuntirishdan va doskada bo'r orqali yozishdan ko'ra kompyuterdan slaydlarni namoyish etib o'quvchilarda tasavvur uyg'otish, o'yin texnologiyalari bilan ularni qiziqtirish orqali o'qitish ancha foydali bo'ladi va mavzu haqida tasavvurga ega bo'linganligi uchun xotirada uzoq vaqt muhrlanib qoladi.[7]

Keling, Internet muhitida qoniqarli yoshlarning ehtiyojlarini hisobga olishga murojaat qilaylik. Shunday qilib, V.Pleshakov Internet muhiti yordamida qondirish mumkin bo'lgan ehtiyojlarni ajratib ko'rsatdi, ya'ni:

1) fiziologik; 2) ekzistensial; 3) ijtimoiy; 4) nufuzli; 5) ruhiy. Biz V.Pleshakov tomonidan taklif qilingan ehtiyojlar tipologiyasidan va u tomonidan ishlab chiqilgan "Internet muhitida qondirilgan ehtiyojlar diagnostikasi" test so'rovnomasidan foydalanamiz [8]. Internet insonga ochlik va tashnalik, erotik tarkibdagi internet resurslariga kirish - jinsiy istak ehtiyoji kabi fiziologik ehtiyojlarni qondirishga imkon beradi. Zamonaviy dunyoda Internet yordamida kiyim-kechak, gigiyena vositalari, dori-hirib, odam vaqtini sezilarli darajada tejaydi, asta-sekin uyda, assortiment bilan tanishish, izohlarni o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi .[9] Vaqt o'tgan sayin sizu biz tomonimizdan xarid qilish uchun Internet resurslaridan foydalanish usullari ham o'zgarib borishi ehtimoldan yiroq emas. Shuni ta'kidlash

kerakki, Internet orqali mahsulot va zaruriy narsalarga buyurtma berish, odam u yoki bu sabablarga ko‘ra do‘konga borish yoki borish imkoniga ega bo‘lman vaziyatdan chiqishning ajoyib usuli hisoblanadi, bu ekzistensial ehtiyojlarni qondirish. Internet muhitida qondiriladi, chunki kompyuter texnologiyalarining keng tarqalganligi va mavjudligi va zamonaviy yashash maydonining global internetlashuvi insonga qulaylik va yashash sharoitlarining barqarorligini his qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, ko‘plab tadqiqotchilar anonimlik va muloqotda “sinov harakatlari” imkoniyatini yaratishga hissa qo‘shadigan og‘zaki bo‘lman tarkibiy qismrlarning yo‘qligi sababli Internet foydalanuvchilarining onlayn muloqot holatini o‘z-o‘zini baholash xavfsizligini bir necha bor ta’kidladilar. Suhbatdoshlar orasida sezilarli anonimlikni ta’minalash, virtual muhitni asosiy qulayliklaridan biri sanaladi, video suhbatlar esa bundan mustasno, yuqorida aytilgan jarayonlarda shaxslararo munosabatlar, muloqot jarayonlari va fikrlashish yanada ochiqlik va psixologik qulaylikka olib keladi. Internetda inson o‘zi uchun qulay bo‘lgan suhbatdoshlar doirasini va vaqtini bemalol yaratishi mumkin. Aytaylikki, elektron pochta orqali o‘zaro aloqada tizimli nazoratni amalga oshirish qobiliyati va ba’zi foydalanuvchilarning o‘z xavfsizligiga bo‘lgan ehtiyojini ham qondiradi [10]. Shaxslararo o‘zaro ta’sir etish mexanizmlari ijtimoiy ehtiyojlar boshqa foydalanuvchilar bilan kiber aloqani o‘z ichiga olgan Internet foydalanuvchilari va o‘zi haqida ma’lum ma’lumotlarni ko‘rsatish, qiziqishlar bo‘yicha “do‘stlar” topish va kiber aloqani amalga oshirish mumkin bo‘lgan Internet muhitining ijtimoiy tarmoqlari tomonidan qondiriladi. Kommunikativ muloqotda haqiqiy hayotda tanish bo‘lgan odamlar, bir-biriga kiberfazoda bemalol muloqot qilishi bilan birga bir-birini yuzma-yuz tanimagan begonalar ham tanish bo‘lganlar kabi bir xilda muloqot yoki aytaylikki, ta’sir eta olishadi. Internet tomonidan qondiriladigan ehtiyojlarning navbatdagi turi obro‘li ehtiyojlardir. Internet-resurslar yordamida foydalanuvchilar boshqa odamlarning ijodi bilan ham tanishishlari va o‘z ijodlarini boshqalarga namoyish etishlari mumkin (fotosuratlar, sayohat yozuvlari, musiqa, videolar, she’rlar, turli xil hunarmandchilik, tikuvchilik, trikotaj va boshqalar). Lekin, virtual muhit ijtimoiylashuvi bahsli sanaladi. Ba’zi bir foydalanuvchilarning o‘z xavfsizligiga bo‘lgan ehtiyojini ham qondiradi. Shunday qilib, Internet insonga ko‘plab ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini berib, tarmoq orqali ulangan oddiy kompyuterlar to‘plamidan Internet foydalanuvchilar jamoasiga, ularning xatti-harakatlarini ma’lum qoidalar va qonunlar bilan bog‘laydigan odamlar jamoasiga aylandi.

TADQIQOT NATIJALARI

Shu bilan birga, kompyuter va Internetga qaramlik kattalar va bolalarga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Ammo, internet ko‘plab foydali jihatlari bilan bir qatorda salbiy oqibatlarini ham namoyon qilmoqda. Aholida, ayniqsa, yoshlarda axborot iste’moli madaniyatining pastligi, turli xabarlar oqimidan kerakligini ajratib olishda bilim,

malaka va ko'nikmaning yetishmasligi ba'zilarning g'arazli kimsa va oqimlar ta'siriga tushib qolishlariga, internet qaramligi kasalligiga yo'liqishlariga sabab bo'lmoqda.[11] Bugungi kunda bepul Internet juda ko'paymoqda bu odamlar hayotini osonlashtiradi va ko'p vaqtini tejashga yordam beradi: kompyuterlar orqali biz har qanday ma'lumotni topamiz,muloqot qilamiz, xarid qilamiz, pul o'tkazamiz va millionlab boshqa favqulodda ishlarni qilamiz,uydan chiqmasdan va hatto stuldan turib kompyuter sichqonchasi bilan amallaymiz. Bizning zamonamizning boshqa o'zgarmas atributlari ham kompyuterga qaramlikni shakllantirishga olib keladi:

- hayotning tobora tezlashib borayotgan tezligi;
- har kuni har birimiz uchun moslashuvchan va o'z-o'zini tashkil etish qobiliyatimizdan oshib ketadigan juda tajovuzkor ma'lumotlarning oqimlari;
- turmush sharoitini o'zgartirish va qadriyatlar tizimini devalvatsiya qilish, kasbhunarga yo'naltirish va muvaffaqiyatga erishish;
- bolalar va ota-onalarning munosabatlarning buzilish xolati va oila inqirozi;

Ko'pgina tadqiqotchilar kompyuter qaramligining quyidagi asosiy turlarini ta'kidlashadi:

- obsesif Internet-bemaqsad (internetda doimiy ma'lumot izlash);
- virtual aloqa;
- onlayn savdo va onlayn qimor uchun ehtiros;
- cyberspex(pornografik saytlarga qaramlik);
- kompyuter tarmoq o'yinlari.

Ehtimol, kompyuter va internetga qaramlikning rivojlanishiga hissa qo'shadigan asosiy sabablar quyidagilardir:

- yangi his-tuyg'ularni, yangi identifikatsiyalarni qidirish;
- hissiy stress va tashvishlarni bartaraf etish;
- do'stlar, qo'llab-quvvatlash, muloqot qilish, ayniqsa, yolg'iz odamlar va aloqalarni

o'rnatishda qiyinchiliklarga duch keladiganlar [12].

Texnologiya eng rivojlangan davlatlardan bo'lmish Xitoy Xalq Respublikasida internetga qaramlik kasallik sifatida e'tirof etilganligi va uni davolovchi maxsus shifoxonalar tashkil etilganligi buning yorqin isboti bo'la oladi. Yoshlarning juda ko'pchiligining internetga qaramligi butunjahon dunyoda global muammo bo'lib ulgurgan.

Shu bilan birga, Internet sohasidagi muloqot kundalik hayotda muloqotni taqqoslashda bir qator muhim afzallikkarga ham ega:

- deyarli har qanday qidiruv mezonlarini qondiradigan juda ko'p miqdordagi sheriklarni tanlash;
- maksimal xavfsizlikni kafolatlaydigan anonim va "ko'rinas" muloqot qilish imkoniyati;



- aloqa bo'yicha faqat bitta sherikning e'tiborini saqlab qolishning hojati yo'q: istalgan vaqtida uni boshqa suhbatdoshlar tomonidan og'riqsiz almashtirish mumkin;[13]:

MUHOKAMA

Bu esa butunjahon dunyo kelajagi uchun fojea, chunki internetga qaram bo'lgan inson o'z qobig'iga o'ralashib qoladi va atrof olamdan bexabar qoladi, virtual-internet olami ularni mas'uliyatsiz, dangasa va loqayd qilib qo'yishidan tashqari sog'lig'iga va ruhiyatiga ham anchagina zarari bor. Agar insonlar, ayniqsa, yoshlar zamonaviy kompyuter o'yinlariga haddan tashqari berilib ketgan bo'lsa, ularni o'ynayotganda u qahramonlar roliga kirishib ketadi, haqiqiy vaqt va hayot tushunchasini yo'qotadi. Masalan, inson o'zini o'rnidagi tasavvur qilayotgan o'zin qahramoni halok bo'lsa, hatto, bu inson ham o'zini o'ldirishi mumkin. Internetning bunday salbiy tomonlari bo'lsa-da zamonaviy texnologiyalarning foydasi ,albatta, ko'proq bizning hayotimizda va undan unumli foydalanish o'z qo'limizda.

XULOSA

Shunday qilib, virtual muhit - haqiqiy faoliyat sohasiga, shaxs hayotining muhim qismiga aylanadi, insonning o'zida ko'p narsalarni o'zgartiradi - uslub, turmush tarzi, odatlar, qiziqishlar doirasi va muloqotni ham. Internetning asosiy vazifasi kundalik hayot makonini ifodalashdir, chunki Internet nafaqat ijtimoiylashuv vazifasini amalga oshirishga qodir, balki jamiyat hayotidagi hodisa va hodisalarga ma'lum maqom, ahamiyat, obro'-e'tibor berish sanaladi. Bugungi dunyo yoshlari son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Bugun internet madaniyati, virtual madaniyat, axborot madaniyati,ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish madaniyati kabi tushunchalar hayotimizdan o'rinni egalladi. Yoshlarda internet olamida o'z o'rnnini to'g'ri belgilash va foydalanuvchilar bilan to'g'ri muomala qilish, virtual olamdagagi axborotlarni to'g'ri tahlil qilish malakasini shakllantirish davr talabidir.Kundalik hayotimizda har narsaning salbiy va ijobiy tomoni bo'lgani kabi zamonaviy texnika vositalaridan foydalanishda ham me'yorga amal qilmog'imiz zarur. Internetdan kamroq va foydali yo'llarda foydalanishni o'rganishimiz va kelajak avlodga o'rgatib borishimiz kerak. Bu bizning kelajagimiz uchun asosiy vazifamizdir. Albatta, hozirgi kunda hech kim yo'qliki biror bir mobil aloqasi va internetdan xabarsiz bo'lsa, ayniqsa yoshlarda kattalarga nisbatan tez o'rganuvchan bo'lganligi uchun bu narsa ular orasida juda tez va keng yoyilib kelyapti. Shuning uchun, bizning kelajagimiz bo'lmish yosh avlodlarga ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish jarayonida umuman o'z shaxsiy ma'lumotlari, uy telefoni raqami, manzili, shuningdek, ota-onasi va yaqinlarining shaxsiy ma'lumotlarini berish mumkin emasligini tushuntirish kerak. «Virtual do'stlar»i orasida yomon niyatli kimsalarga duch kelish xavfi va ular bilan haqiqiy hayotda uchrashishlari, ishonuvchan odatlariga ko'ra begonalar bilan dildan suhbatlashishlari xavfini alohida ta'kidlash zarur. Bunday muloqotlar ko'pincha kiber jinoyatchilar ya'ni internet orqali jinoyat



qiluvchilar uchun juda qulay sharoit ekanligini har bir o'smir bilmog'i lozim va yoshlarning internetdan foydalanishini qattiq nazorat qilish kerak. Internetga haddan ziyod bog'lanib qolish insonlarning ham tana sog'ligida, ham ruh sog'ligida bir qancha nuqsonlarning paydo bo'lishini inonatga olib, internetdan me'yorida foydalanishga amal qilish lozim. "So'nggi pushaymon o'zingga dushman" degan gap ham bejizga aytilmagan. Salbiy oqibatlar bilan kurashgandan ko'ra uni oldini olgan afzal

REFERENCES:

1. Смольянинова, Т. С. Образ другого человека как основа формирования идентичности личности / Т. С. Смольянинова, Т. А. Петряева, Ю. А. Бусыгина // Вестник Православного Свято-Тихоновского гуманитарного университета. Серия 4: Педагогика. Психология. - 2020. - № 56. - С. 30-40.
2. Соколова, Д. М. Основные тенденции виртуализации социального в информационную эпоху / Д. М. Соколова // Известия Самаровского университета. Новая серия. Серия: Философия. Психология. Педагогика. - 2013. - Т. 13. - № 2. - С. 61-64.
3. Zakirovich, Djumanov Sherali. "TALABALARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI." International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2022): 543-545.
4. Mirzayev Jamshid Turdaliyevich. Yoshlar ijtimoiy hulq-atvoriga internet muloqoti ta'sirining psixologik jihatlari mavzusida, Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) olish uchun yozilgan disertasiysi. 2023 y. 4-bet.
5. Мирзаев Джамшид Турдалиевич. «Психологические аспекты влияния интернет-общения на социальное поведение молодеже». «International Journal of Medicine and Psychology / Международный журнал медицины и психологии» включен в список ВАК с 04.02.2020г., РИНЦ (Elibrary.ru) и в Международную базу данных Agris., 2022 г. 127-133 ст
6. Zakirovich, Djumanov Sherali. "TALABALARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI." International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2022): 543-545.
7. Akhmedov, B. A., Makhkamova, M. U., Aydarov, E. B., Rizayev, O. B. (2020). Trends in the use of the pedagogical cluster to improve the quality of information technology lessons. Экономика и социум, 12(79), 802-804
8. R.U.Otamuratov., Kasbiy tanlovlardagi xavotirlanishning psixologik xususiyatlari., ГЛОБАЛ ДУНЁДА ПСИХОЛОГИЯ ФАНИ: НАЗАРИЯ ВА АМАЛИЁТ, ЧАҚИРУВЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛАР Профессор Эргаш Фозиевич Фозиев хотирасига багишланган Республика илмий-амалий конференцияси материаллари 16 феврал 2022 йил 2022 y., - 379 b.

- 9.Х.Рухиева, Р.Отамуратов., Ўсмилик даврига хос бўлган суицидал хулқ-авторнинг психодиагностикаси., “Tafakkur tomchilari”Т-2021., 237-241-bet.
10. R.U.Otamuratov., Kasbiy motivatsiyalarda qo‘rquv va xavotirlanish psixokorreksiyasi, magistrlik dis., T-2022., 79-bet
11. Yu.D. Babaeva, Axborotlashtirishning psixologik oqibatlari / "Psixologik jurnal", E 1, 1998, 88-100-betlar.
12. Катков А.Л. О психологических и медицинских аспектах негативного влияния компьютерной зависимости на несовершеннолетних: методические рекомендации. Павлодар. 2012. 48 с.
13. Пережогин Л.О., Вострокнутов Н.В. Нехимическая зависимость в детской психиатрической практике. Rossiya psixiatriya jurnali. 2009; 4: 86–91.